| <b>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna</b>                                                                                                                                                              |     |
| Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda<br>qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish .....                                                                           | 307 |
| <b>Olimjonova Nigina Sobirjon qizi</b>                                                                                                                                                             |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish .....                                                                                                             | 312 |
| <b>G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi</b>                                                                                                                                          |     |
| Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni .....                                                                                                                   | 317 |
| <b>Qodirova Sevara Shuxratovna</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                                                                                        | 325 |
| <b>Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi</b>                                                                                                 |     |
| Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan<br>foydalanishning sifat samaradorligi .....                                                                                   | 329 |
| <b>Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul</b>                                                                                                                                            |     |
| Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining<br>kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi .....                                                         | 333 |
| <b>Boynazarova Munajat</b>                                                                                                                                                                         |     |
| O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari .....                                                                                                                                      | 337 |
| <b>Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona</b>                                                                                                                                        |     |
| Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности<br>и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий .....                           | 340 |
| <b>Гаухар Джанпеисова</b>                                                                                                                                                                          |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish<br>muammolari va imkoniyatlari .....                                                                              | 347 |
| <b>Majidova Hilola Eshquvat qizi</b>                                                                                                                                                               |     |
| Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и<br>иностранных языков: интегративный подход .....                                                                      | 351 |
| <b>Турланова Сауле Дадажановна</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning<br>ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish .....                                                          | 357 |
| <b>Maxsetova Zuxra Torebayevna</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti .....                                                                                                                            | 361 |
| <b>Karimov Odiljon Baxadirovich</b>                                                                                                                                                                |     |
| Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning<br>nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida) .....                      | 364 |
| <b>Samatova Munira Dilshod qizi</b>                                                                                                                                                                |     |
| Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей<br>дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи .....                                                                   | 368 |
| <b>Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.</b>                                                                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba<br>motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiy tavsifi ..... | 373 |
| <b>Ergasheva Matluba Burxonovna</b>                                                                                                                                                                |     |
| Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari .....                                                                                                | 378 |
| <b>Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich</b>                                                                                                                                                       |     |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi..... | 382 |
| <b>Karimov Feruz Raimovich</b>                                                                                                                |     |
| Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar .....                                            | 386 |
| <b>Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....                            | 389 |
| <b>Masharibova Lobar Rayimberganovna</b>                                                                                                      |     |
| Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....                                       | 393 |
| <b>Mirtoeyeva Shohruza Ibjohimjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish .....                                                   | 396 |
| <b>Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova</b>                                                                                                |     |
| Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....                                                             | 400 |
| <b>Raxmatova Nargiza Dolibayevna</b>                                                                                                          |     |
| Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi..... | 403 |
| <b>Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi</b>                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....        | 406 |
| <b>Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna</b>                                                                                |     |
| Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari .....                                        | 410 |
| <b>Sh. T. Musulmonova</b>                                                                                                                     |     |
| 15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash .....                                                                  | 413 |
| <b>Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli</b>                                                           |     |
| Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....                                          | 416 |
| <b>Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri .....                                                                        | 419 |
| <b>Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi</b>                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....                                                                               | 422 |
| <b>Turdiyeva Raxima Kurbanovna</b>                                                                                                            |     |
| Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....                                   | 426 |
| <b>Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna</b>                                                                        |     |
| Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....                                                       | 432 |
| <b>Г. С. Алиходжаева</b>                                                                                                                      |     |
| Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников ..                                                    | 436 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева</b>                                                                                                   |     |
| Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель .....                   | 440 |
| <b>Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева</b>                                                                                 |     |
| O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...                                 | 444 |
| <b>Murodova Umida Dilmurodovna</b>                                                                                                            |     |
| Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку .....                           | 449 |
| <b>Саидова Махсудахон Аббасовна</b>                                                                                                           |     |
| Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....                                  | 452 |
| <b>Собирова Пошшаой Эркин кизи</b>                                                                                                            |     |
| Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....                                                           | 455 |
| <b>Хафизова Машхура Аминовна</b>                                                                                                              |     |



# INKLYUZIV TA'LIM BO'YICHA RESPUBLIKADA OLIB BORILAYOTGAN FAOLIYAT

Sattorova Mohira Aminqulovna

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti  
Pedagogika kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid pedagogik nazariyalar tahlil qilinadi hamda inklyuziv ta'limni tashkil etish, inklyuzivlikni targ'ib qilish va o'quv jarayoni mazmunini sifatli tashkil etish muammolari yoritiladi. Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus kurslar, sport va san'at yo'nalishlarida rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, ijtimoiy integratsiya jarayonlariga hissa qo'shish maqsadida o'quv dasturlari va tadbirlarni tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda maxsus ehtiyojlarga ega bolalarga ta'limni umumta'lim maktablarida taqdim etish, ularni inklyuziv sinflarda o'qitish hamda jismoniy yoki aqliy nuqsonli bo'lgan bolalarning o'zlashtirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, inklyuzivlik, pedagogik yondashuv, psixologik moslashuv, adaptatsiya, ta'lim olishdagi tenglik, inson huquqlari, umuminsoniy qadriyatlar.

**Abstract:** This article analyzes pedagogical theories related to the development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan and highlights the issues of organizing inclusive education, promoting inclusion, and ensuring the qualitative content of the educational process. The paper examines the organization of special courses, educational programs, and activities for children with special needs aimed at creating opportunities for development in sports and arts and contributing to social integration processes. In Uzbekistan, the provision of education for children with special needs in general secondary schools and their instruction in inclusive classrooms are aimed at increasing learning opportunities for children with physical or intellectual disabilities. The article also discusses programs for teacher training and professional development in the field of special and inclusive education to ensure its effective implementation.

**Key words:** inclusive education, inclusion, pedagogical approach, psychological adaptation, equality in education, human rights, universal values.

**Аннотация:** В статье анализируются педагогические теории, связанные с развитием инклюзивного образования в Республике Узбекистан, а также освещаются проблемы организации инклюзивного обучения, пропаганды принципов инклюзивности и качественного содержания образовательного процесса. Рассматриваются вопросы организации специальных курсов, образовательных программ и мероприятий для детей с особыми потребностями с целью создания возможностей для их развития в сфере спорта и искусства и содействия социальной интеграции. В Узбекистане обеспечение образования детей с особыми потребностями в общеобразовательных школах и их обучение в инклюзивных классах направлены на расширение возможностей усвоения знаний детьми с физическими или умственными нарушениями. Также представлены положения о программах подготовки и повышения квалификации педагогов в сфере специального и инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, инклюзивность, педагогический подход, психологическая адаптация, равенство в образовании, права человека, общечеловеческие ценности.

## KIRISH

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan yana bir nechta muhim faoliyatlar quyidagilardan iborat. Inklyuziv ta'limning ahamiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish va targ'ib qilish maqsadida turli aksiyalar, konferensiyalar, seminarlar o'tkazilmoqda. Bunday tadbirlar orqali jamiyatda nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan mavjud salbiy stereotiplar va diskriminatsiyani kamaytirish, ularni teng huquqli fuqarolar sifatida qabul qilishga undash ko'zda tutiladi.

Inklyuziv ta'lim faqat maktablarda emas, balki maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham amalga oshirilmoqda. Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun maxsus kurslar, sport va san'at sohasida rivojlanish

imkoniyatlarini yaratish, ijtimoiy integratsiya jarayonlariga hissa qo'shish maqsadida o'quv dasturlari va tadbirlar tashkil etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), UNICEF kabi tuzilmalar bilan hamkorlik muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuzivlikni yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro tajriba va resurslardan foydalanish amaliyotga joriy etilmoqda.

Elektron va masofaviy ta'limning rivojlanishi alohida yordamga muhtoj bolalar uchun masofadan turib o'qish imkoniyatlarini yaratdi. Masofaviy ta'lim platformalarini rivojlantirish va ular orqali nogironligi bo'lgan bolalar uchun o'quv materiallarini qulaylashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulaydir. Aloqa vositalari va texnologiyalarni kengaytirish zarurati mavjud. Texnologiyalardan foydalanish inklyuziv ta'limda alohida ahamiyat kasb etadi. Dasturiy ta'minotlar, maxsus dasturlar, mobil ilovalar va boshqa innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda tatbiq etish orqali nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish jarayonini qulaylashtirish maqsadida ko'plab ishlanmalar amalga oshirilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar doirasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar va boshqa mutaxassislar tomonidan alohida yordamga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi metodologiyalar ishlab chiqilmoqda.

Inklyuziv ta'limning samarali amalga oshirilishi uchun zarur moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Maxsus o'quv materiallari, o'qituvchilarni tayyorlash va infratuzilmani yaxshilash uchun davlat budjetidan alohida mablag'lar ajratilmoqda. Shu bilan birga, xususiy sektor va notijorat tashkilotlari ham inklyuziv ta'limga hissa qo'shmoqda. Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular uchun psixologik yordam, ijtimoiy xizmatlar, shuningdek, kasbiy yo'nalishlar bo'yicha maslahat va qo'llab-quvvatlash tizimi tashkil etilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim masalalari jahon va milliy pedagogika fanida keng o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi-ning 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son<sup>1</sup> Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son<sup>2</sup> Farmonida ta'limda tenglik va inklyuzivlik tamoyillari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xalqaro miqyosda UNESCO tomonidan 1994-yilda qabul qilingan Salamanca bayonotida barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu hujjatlar inklyuziv ta'limning huquqiy va konseptual asoslarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Liverpool shahrida 2020-yil 5–7-fevral kunlari o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kompetensiyalari, metodik tayyorgarligi va pedagogik moslashuv jarayonlari tahlil qilingan. I. Y. Turaevna 2020-yilda nashr etilgan tadqiqotida zamonaviy o'qituvchi shaxsining axloqiy qiyofasi va kasbiy imiji inklyuziv ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Yulduz I. va Umida M. 2021-yilda chop etilgan maqolasida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik etika va mas'uliyatni shakllantirish inklyuziv muhitni barqaror tashkil etishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son<sup>3</sup> Farmon inklyuziv ta'limni rivojlantirishning institutsional asoslarini mustahkamlab berdi. Ushbu manbalar inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasini huquqiy, metodik va axloqiy jihatdan kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta'lim bo'yicha respublikada olib borilayotgan faoliyatni o'rganish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Ma'lumotlar normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida yig'ildi. Shuningdek, umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar o'rtasida so'rovnoma va yarim tuzilmaviy intervyular o'tkazildi. Kuzatish metodi orqali inklyuziv sinflarda ta'lim jarayonining tashkil etilishi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil hamda statistik umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib,

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmon: <https://lex.uz/uz/docs/-3436192>



inklyuziv ta'lim amaliyotining mavjud holati, muammolari va rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Natijalar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, mavjud tajriba va ilmiy xulosalar bilan solishtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bir qator ishlar mavjud. Inklyuziv ta'lim barcha talabalar, shu jumladan, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ta'limni umumta'lim maktablarida taqdim etish, ularni inklyuziv sinflarda o'qitish, jismoniy yoki aqliy nuqsoni bo'lgan bolalarning o'zlashtirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha inklyuziv ta'limni amalga oshirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda. O'qituvchilar maxsus ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlash uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim muassasalarini moslashtirish ishlari ham olib borilmoqda. Jumladan, muassasalar binolarining arxitekturasini jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalar uchun moslashtirish, ularni zarur texnologik vositalar bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Maxsus ehtiyojlarga ega bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan qonun va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Jamoat va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, inklyuziv ta'lim bo'yicha pilot loyihalar, maxsus sinflar va yordamchi xizmatlar (psixologik va pedagogik yordam) kabi innovatsion yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Bu jarayonlar bolalarning o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etish va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar kengaytirilmoqda va yangi tashabbuslar bilan boyitilmoqda. Ko'plab maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshqa ta'lim muassasalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida inklyuziv ta'limni amalga oshirishga moslashtirilmoqda. O'qituvchilar va talabalar uchun maxsus texnologik vositalar – kompyuterlar, ovozli va video materiallar, kirish imkoniyatlarini yengillashtiruvchi qurilmalar – taqdim etilmoqda.

O'qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida maxsus treninglar va seminarlar o'tkazilmoqda. Universitetlar va o'qituvchi tayyorlash markazlarida inklyuziv ta'lim bo'yicha alohida kurslar va dasturlar joriy etilgan. Psixologlar va pedagoglar hamkorligida maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun individual ta'lim dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Inklyuziv ta'limni kengaytirishning asosiy maqsadi nafaqat maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini yaratish, balki ta'lim sifatini oshirishdir. O'qish jarayonida vizual yordamlar, ovozli kitoblar, ilovalar va maxsus dasturlarni joriy etish, ijtimoiy hamda emotsional qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar uchun maxsus sinflar va individual ta'lim rejalari ishlab chiqilmoqda. Jismoniy nuqsoni mavjud bolalar uchun moslashtirilgan dasturlar joriy etilgan. Aqliy rivojlanish darajasiga qarab maxsus o'quv metodlari qo'llanilmoqda.

Inklyuziv ta'limni faqat sinf doirasida amalga oshirish yetarli emas; bu jarayon jamiyatda kengroq integratsiyani ta'minlashga qaratilgan. Maxsus ehtiyojlarga ega bolalarning tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi va jamiyatda faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash zarur.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning Ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (UNESCO), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) bilan hamkorlikda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirmoqda. Raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta'limda qo'llash xorijiy tajriba asosida takomillashtirilmoqda. Inklyuziv ta'limni kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida joriy etish yo'nalishlari ham ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon maxsus ehtiyojlarga ega talabalar uchun moslashuv mexanizmlarini joriy etishni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning inklyuziv ta'lim tizimi izchil rivojlanib, takomillashib bormoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish borasida izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon maxsus ehtiyojlarga ega bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularning jamiyatga to'liq integratsiyalashuviga erishish hamda teng imkoniyatlar muhitini yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish uchun normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarining

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, individual ta'lim dasturlarini takomillashtirish va ota-onalar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish ham tizimning barqaror va sifatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3436192>
3. Content of the Teacher of Inclusive Education. Scientific Achievements of Modern Society: Abstracts of the VI International Scientific and Practical Conference, February 5–7, 2020, Liverpool. – P. 324–328.
4. Turaevna, I. Y. (2020). Morality as a Component of the Image of the Modern Teacher. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(2), 141.
5. Yulduz, I., & Umida, M. (2021). Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers. Бюллетень науки и практики, 7(5), 503–508.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.